




Termiz va Sherobod tumanlarida ko'chat ekish uchun maydonlarni tayyorlash ishlari, Termiz shahrida investitsiyalar bo'yicha taqdimotlar hamda loyihalar faoliyati bilan tanishildi






Bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov Sherobod va Termiz tumanlarida bo'lib, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt va buta ko'chatlari ekish uchun tayyorlanayotgan maydonlarni ko'zdan kechirdi.

Xususan, Sherobod tumanida M39 avtomagistral yo'lining ikki yonidagi bo'sh maydonlarni meliorativ holatini yaxshilash maqsadida tuproq to'ldirish ishlari bilan tanishildi. Hududga tanlab olingan adirlikning tuproqlari maxsus mashinalarda tashib kelinmoqda. Prezidentimiz tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida tayyorlanayotgan maydon bo'ylab, yashil belbog' yaratiladi.












Shundan so'ng, Termiz tumani "Yangiobod" mahallasi hududidan tanlab olingan 100 hektar maydonni ko'chat ekishga tayyorlash ishlari bilan tanishildi. Viloyat rahbari ishlarni sifatli olib borish, maydonning tuproq unumdarligini oshirish, sug'orish tizimlari bilan ta'minlash yuzasidan vazifalarni belgilab berdi. Ushbu hududda bog'ning yaratilishi kelgusida yashil belbog' vazifasini o'taydi hamda "Afg'on shamoli" keltirib chiqaradigan changlarning salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.










Shuningdek, Al-Hakim at-Termiziy majmuasida olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari bilan ham tanishilib, yo'laklarni yangilash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari ko'zdan kechirildi. Mutasaddilarga yangi vazifalar

topshirildi.

Bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov kunning ikkinchi yarmida haftalik ish rejasiga muvofiq investitsiya va eksport masalalari kompleksi faoliyatiga oid taqdimotlar bilan tanishdi. Termiz iqtisodiyot va servis universitetida o'tkazilgan taqdimotda Investitsiyalar va tashqi savdo hamda Bojxona boshqarmalari rahbarlari loyihalar bilan tanishtirishdi.














Unga ko'ra, Termiz shahrida 2025-yilda hududiy va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan jami 281,9 mln dollarlik 50 ta loyiha amalga oshirilishi, ularda 1 850 dan ortiq ish o'rnlari yaratilishi rejalashtirilgan. Bojxona boshqarmasi tomonidan viloyatdagi mavjud bojxona postlari, ularning faoliyati hamda eksport ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida yo'lga qo'yilgan "Eksport uchun uch qadam" tizimining ishlash jarayoni haqida axborot berildi.



Viloyat rahbari investitsiyalar va xorijiy kreditlarni istiqbolli loyihalarga, aniq maqsadli yo'naltirish, eksport ko'rsatkichlarini oshirishda tashkilotlarning o'zaro hamkorligini samarali yo'lga qo'yish lozimligini ta'kidladi va tegishli vazifalarni belgilab berdi.


















Shundan so'ng, Termiz shahrida "Sherxon Namoz" MChJ tomonidan 60 o'rinli zamonaviy mehmonxona tashkil etish, "Surxon qurilish" MChJning qurilish materiallari ishlab chiqarish, "Komfort mebel servis" MChJning mebel mahsulotlar tayyorlash hamda "Safari-21" qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish faoliyatları bilan tanishildi.